

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

R.S.Shodiyeva	
Ijod va aqliy taraqqiyot muammosining sharq mutafakkirlari asarlaridagi talqini	424
M.G'.Ismoilov	
O'smirlarda familistik kompetensiyasini rivojlantirishning tamoyillari.....	429
N.X.Raxmankulova	
O'quvchilar tarbiyasini shakllantirishda ota-onalarga pedagogik bilim berish tizimining ahamiyati	433
M.Saminjonov	
Rasmiy-siyosiy qasamlar	439
A.A.Hakimov	
1358-1370 yillarda movarounnahrda kechgan hokimiyat uchun kurash jarayonlarining tarixiy manbalarda yoritilishi	444
Sh.T.Abbosova	
Yangi O'zbekiston taraqqiyoti bosqichida milliy g'oya barqarorlik kafolati	448
A.A.Parmonov	
Jismoniy madaniyat ta'limi sohasidagi mutaxassislar tayyorlash tizimini takomillashtirishda aksiologik yondashuv asosida akmeologik motivatsiyani rivojlantirishning o'rni va ahamiyati.....	451
S.M.Abdullayev	
Bo'lajak musiqa ta'limi o'qituvchilarining kognitiv kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy-pedagogik ahamiyati	456
S.M.Ro'zimurodov	
Axloqiy-estetik qadriyatlarni shakllanishida oilaviy marosimlarning o'rni.....	460
M.A.Мирзарахимов	
Организация клиент-серверной технологической среды в образовании: анализ влияния и перспективы развития.....	464
Z.H.Ubaydullayeva	
Hissiyot ifodalovchi noverbal vositalarning lingvokulturologik tahlili	467
J.Xamroqulov	
Tyutorlar faoliyatini takomillashtirish asosida talabalarning ma'naviy-ahloqiy kompetentligi rivojlantirish.....	471
N.O.Yunusaliyeva	
O'quvchilarda ijtimoiy-axloqiy ideal haqidagi tasavvurlarini rivojlantirishning mazmun-mohiyati ..	475
N.I.Suleymanova	
Ijtimoiy fan darslarida abu ali ibn sino yozgan falsafiy qissalaridan foydalanishning tarbiyaviy ahamiyati	481
Y.V.Lutfullina	
Ta'lim jarayonida tarbiya usullarini to'g'ri tanlashning ahamiyati.....	486
J.I.Xomidjonov, E.X.Bozorob	
Tibbiyotda (klinikada) tovush yordamidagi usullar bilan tekshirishni "Swot-Tahlil" metod asosida o'qitish	490
D.T.Tursunova	
Ijtimoiy faollik-talaba xotin-qizlar ijtimoiy ongini shakllantirishning ustuvor tamoyili va muhim omili sifatida	497
S.A.Sharipova	
Internet muloqoti yangi til hodisi sifatida.....	500
K.I.Марайимова	
Использование инновационных форм экскурсии в повышении социокультурной компетентности будущих учителей.....	506
B.B.Djalalov, K.P.Uzakov	
Ta'limning uzluksizligi mutaxassisning kasbiy kompetensiya darajasini oshirish omili sifatida.....	512
M.K.Saliyeva, R.F.Talipov, O.E.Ziyadullayev, S.I.Tirkasheva, L.Q.Ablaqulov	
Ayrim geteroatomli aldehydlarni $\text{InBr}_3/\text{Et}_3\text{N}/\text{Et}_2\text{O}$ katalitik sistemasida alkinillash jarayoni.....	519
A.Sh.Raximov	
Ichki yonuv dvigatellarining umumiy tuzilishi hamda 2 va 4 taktli dvigatellar ishchi sikllari, moylash tizimini tuzilishi, hamda ishlashi.....	527

**YANGI O‘ZBEKISTON TARAQQIYOTI BOSQICHIDA MILLIY G‘OYA BARQARORLIK
KAFOLATI****НАЦИОНАЛЬНАЯ ИДЕЯ НА ЭТАПЕ РАЗВИТИЯ НОВОГО УЗБЕКИСТАНА
ЯВЛЯЕТСЯ ГАРАНТИЕЙ СТАБИЛЬНОСТИ****THE NATIONAL IDEA AT THE STAGE OF DEVELOPMENT OF THE NEW UZBEKISTAN
IS A GUARANTEE OF STABILITY****Abbosova Shoxidaxon Turdaliyevna¹**¹Farg‘ona davlat universiteti katta o‘qituvchi**Annotatsiya**

Mazkur maqolada jamiyat barqarorligida milliy g‘oyaning ma‘naviy-axloqiy omillarining ijtimoiy taraqqiyotdagi ijobiy jihatlarning ilmiy-falsafiy taraflari ochib berilgan. Ma‘naviy-axloqiy omillar jamiyatimiz taraqqiyotining yangi bosqichida shaxs ma‘naviy dunyoqarashining o‘zgarishi bilan birga yangicha hayot uchun zarur bo‘lgan ko‘nikmalar ekanligi asoslangan. Jamiyatda milliy o‘zlikni anglash, milliy his-tuyg‘ularni shakllantirish - milliy g‘oyaning substansional xususiyati: barqarorlik shartlaridan ekanligi ilmiy asoslangan.

Аннотация

В данной статье раскрываются научные и философские аспекты стабильности общества в позитивных аспектах духовно-нравственных факторов национальной идеи для общественного развития. Духовно-нравственные факторы основаны на том, что на новом этапе развития нашего общества у человека появляются навыки, необходимые для новой жизни, сопровождающейся изменением духовного мировоззрения. Осознание национальной идентичности в обществе, формирование национальных чувств - существенная особенность Национальной идеи: дело в том, что она из условий стабильности научно обоснована.

Abstract

This article reveals the scientific and philosophical aspects of the stability of society in the positive aspects of the spiritual and moral factors of the National idea to social development. Spiritual and moral factors are based on the fact that at a new stage of the development of our society, a person is the skills necessary for a new life, accompanied by a change in the spiritual worldview. The awareness of the national identity in society, the formation of national feelings-a substantive feature of the National idea: the fact that it is from the conditions of stability is scientifically based.

Kalit so‘zlar: jamiyat, barqarorlik, ma‘naviyat, axloq, milliy o‘zlikni anglash, his-tuyg‘u, milliy g‘oya, milliy qadriyatlar, umuminsoniy qadriyatlar, substansional xususiyat.

Ключевые слова: общество, стабильность, духовность, мораль, осознание национальной идентичности, эмоции, национальная идея, национальные ценности, общечеловеческие ценности, материальная собственность.

Key words: society, stability, spirituality, morality, national identity awareness, emotion, national idea, national values, universal values, substantive property.

KIRISH

Dunyoning yetakchi ilmiy tadqiqot institutlari va markazlarida amalga oshirilayotgan ilmiy tadqiqotlarda milliy o‘zlikni anglash, jamiyatning barqaror yuksalishi va milliy g‘oyaning ijtimoiy-madaniy hayotga ta‘sirining aloqadorligiga oid ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Millat va jamiyat barqarorligi milliy g‘oya xususiyatlarini faollashuvi, milliy manfaatlarga mos keluvchi vositalari, jamiyatning milliy yuksalish jarayonlariga ijtimoiy-siyosiy, ma‘naviy-ma‘rifiy yangilanishga ehtiyoji ortib bormoqda. Bu esa, jamiyat barqarorligida milliy g‘oyaning o‘rniga oid tadqiqotlarga bo‘lgan zaruratni kuchaytirmoqda.

Mamlakatimizning so‘ngi taraqqiyot davri jamiyat barqarorligi va milliy g‘oyaning milliy yuksalish va rivojlanishning asoslari sifatidagi ijobiy ta‘siri ortmoqda. Zero, “Xalqimizning tinchligi, jamiyat barqarorligi, umuminsoniy, milliy va diniy va qadriyatlarimizga qarshi qaratilgan, milliy o‘zligimizni, xalqimizning asrlar davomida shakllangan hayot tarzini borbod qilishga yo‘naltirilgan tahdidlarga qarshi kurashishning samarali va vositalarini ishlab chiqish...” [2. 278.], muhim ahamiyat kasb etmoqda. Zotan, jamiyat taraqqiyotini barqaror rivojlantiradigan va millatni buyuk qiladigan kuch bu – milliy g‘oyadir. Milliy g‘oyaning jamiyatdagi eng muhim vazifasi millat ravnaqi, yosh avlodning kelajagi va jamiyat taqdiriga daxldorlikdir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbekiston Respublikasining Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 3-maydagi PQ-4307-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2017-yil 28-iyuldagi PQ-3160-son "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish va sohani rivojlantirishni yangi bosqichga ko'tarish to'g'risida"gi Qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida milliy g'oyani rivojlantirish Konsepsiyasi"gi hamda boshqa meyoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar muayyan darajada bajarilishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat barqarorligini ta'minlashda milliy g'oyaning o'rniga oid konseptual g'oyalar O'zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning [7.], shuningdek, Prezident Sh.M.Mirziyoyevning asarlarida [2., 3., 4., 5., 6.] ochib berilgan. Hozirgi davrda "Biz yaratayotgan Yangi O'zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g'oyasi bo'ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan" [8.] zarurligi ijtimoiy hayotning muhim tarkibiy qismi sifatida namoyon bo'lmoqda.

Jamiyat barqarorligida milliy g'oyaning o'rnini haqidagi qarashlar va vositalari Sharq mutafakkirlar ijodida ochib berilgan. Masalan, Abu Nasr Forobiy "Odamlarga nisbatan ularni birlashtiruvchi boshlang'ich asos insoniylikdir, shuning uchun ham odamlar insoniyat turkumiga kirganliklari tufayli o'zaro tinchlikda yashamoqlari lozim" [9. 286.], ya'ni zamonaviy jamiyatda milliy g'oyaning asosi inson qadriga qaratilishi zarur ekanligiga dalildir. Beruniy fikricha, "Odamlarning ilmlarga rahbat qilinishi ilmlarni va ilm ahillarini hurmatlashi kelajak iqbolning belgisidir" [10. 99.], deydi. Bu esa, o'z zamonida barqarorlikni asosi bilimga milliy g'oyaning fundamenti hisoblangan ahillikka asoslanishining isbotidir. Jadidchi Mahmudxo'ja Behbudiy "Millatlar qanday taraqqiy etarlar" nomli maqolasida ta'kidlaydiki, millatlar taraqqiyotiga jamiyat a'zolarining ilmga bo'lgan rahbati va shijoati xizmat qiladi [11. 16.], deyiladi. Bu esa jamiyatda yoshlarni milliy g'oya ruhida tarbiyalash, vatanparvarlik va ijtimoiylashuvining innovatsion yondashuvlari hamma davrlarda ham dolzarb ekanligini ifodasidir.

Jamiyatda inson ehtiyojlari va intilishlarini qondirish uchun hozirgi va kelajak salohiyatini mustahkamlash [12.] ma'nosidagi ta'rifni iqtisodiy va ma'naviy jihatlarini qiyosiy tahlil etishga, jamiyat barqarorligi inson hayoti faoliyatining yuksalishiga g'oyalarning, xususan milliy g'oyaning ijobiy ta'siri oshib bormoqda. Faylasuf A. Saitqosimov "ijtimoiy barqarorlik jamiyat taraqqiyotining birinchi sharti bo'lib, ijobiy va innovatsion o'zgaruvchanlikka zamin hozirlaydi va jamiyatning jadal rivojlanishini ta'minlaydi [13,18.], degan fikriga qo'shiladi. Bu o'rinda barqarorlik ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lsagina uning darajasini anglab yetish oson bo'ladi. Milliy g'oyaning jamiyatdagi o'rnini barqarorlik bilan innovatsionlashganda ijobiy ta'sirga ega bo'ladi.

NATIJA VA MUHOKAMA

Bizning fikrimizcha, ma'rifatlilik umuminsoniylikka yo'g'rilgan milliy manfaatlarni himoya qilishdan uzoq bo'lgan reaksiya kuchlar ham o'zlarining tor siyosiy manfaat va maqsadlarini milliy g'oya sifatida kun tartibiga qo'yishi va shu yo'l bilan xalqning milliy ongi hamda ruhiyatiga ta'sir etishga harakat qilishi mumkin. Millat uchun bunday vaziyat, odatda, juda alg'ovli kechib, jamiyat uchun ko'plab salbiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Ta'kidlash joizki, har bir xalq o'z hayotiy faoliyatini farovon yashash, barkamol avlod yetishtirish, ma'suliyatli jamiyatni barpo etishda ijtimoiy-siyosiy institutlari ham ishtirok etishi zarurligi e'tirof etiladi. Yashash sharoiti, muhit va munosabatlarning xususiy jihatlariga qarab xalqlar dunyoni ham turli-tuman tasavvur qiladi. Ijtimoiy barqarorlik uchun jamiyat a'zolarida adolat xususida o'z tushuncha yoki tasavvurini hammadan afzal deb bilish boshqalarni ham shunga da'vat etish, keyinchalik borib majburlashga o'tish adolatga mutloq ziddir.

Jamiyatda ijtimoiy munosabatlar va jarayonlar tobora murakkablashib, yangi bir holatga, bosqichga o'sib borishi ochib berilgan. Yurtimizda voyaga yetgan buyuk ilohiyatchilarning islom madaniyati hamda ta'limotining jahon sivilizatsiyasi tayanchlaridan biriga aylanishidagi beqiyos buyuk fan arboblarning esa dunyo fanining yuksaklikka ko'targanliklarini alohida qayd etish lozim.

Ajdodlarimiz aynan shu jihati bilan Markaziy Osiyo taraqqiyotiga va mentalitetiga ulkan hissa qo'shadi.

Milliy g'oya – yangi jamiyat barqarorligining zaruriy sharti sifatida jamiyat tayanchi, barqarorlik va xavfsizlik kafolati ochib berilgan. Bu borada muallif, ikki muhim vazifa asosida amalga oshiriladi. Birinchisi, mustaqillikning dolzarb yillarida milliy g'oyaning ko'pmillatli va ko'pkonfessiyali O'zbekiston uchun jipslashtiruvchi kuchga aylanganligi; ikkinchisi esa uning ijtimoiy taraqqiyot va o'zgarishlar bilan hamnafaslikda muttasil yangilanib borishida namoyon bo'ladi. Muallif fikricha, O'zbekistonda fundamental siyosiy muammoning ijobiy yechimi, ya'ni milliy davlat suverenligi, barhayotligining noyob, ma'naviy-ruhiy tayanchi milliy g'oya bo'ladi. Milliy g'oya jamiyatda qancha chuqur ildiz o'tsa, kelajakka bo'lgan ishonch shuncha mustahkam bo'ladi.

Faylasuf olim Yaxshilikovning "Xato va kamchiliklarni o'z vaqtida joyida bartaraf etmasdan turib, mamlakatimizni yangi sifatli taraqqiyot bosqichiga olib chiqish mumkin emas" [14. 131.], degan fikriga qo'shilishimiz mumkin. Zero, ijtimoiy muammolarni ijobiy hal etilishi jamiyat barqarorligiga ta'sir etadi.

Yangi O'zbekistonda fuqarolik jamiyatining demokratik shakllariga asoslangan qiyofasini yaratish uchun jahon hamjamiyati tajribasiga tayanib Harakatlar strategiyasi ishlab chiqilganligi va bu ijtimoiy barqarorligidan foydalanishning yangi bosqichi ekanligi e'tirof etilgan. Bu "... globallashtiruv sharoitida raqobat tobora kuchayib boryotgani davlatimizni yanada barqaror va jadal sur'atlar bilan rivojlantirish uchun mutlaqo yangicha yondashuv hamda tamoyillarni ishlab chiqish va ro'yobga chiqarishni taqozo etmoqda" [1.4.], fuqarolik jamiyatining umum e'tirof etilgan tamoyillariga tayangan holda ijtimoiy loyihalash texnologiyasini ijtimoiy hayotga tatbiq etish ehtiyojini oshiradi. Nazariy loyihalarni amalga oshirishda ijtimoiy barqarorlik texnologiyalaridan maqsadli foydalanish muhim ahamiyatga ega.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda jamiyatdagi o'zgarishlarni his etish uchun inson ma'naviyatini shaxs sifatida rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Bir tizimdan ikkinchi tizimga o'tish davrida o'zlikni anglashning o'ziga xos ko'rinishlarini anglamasdan jamiyat barqarorligining darajasini aniqlab bo'lmaydi. Chunki yuksak rivojlangan jamiyat o'zligini anglagan shaxslardan tarkib topadi. Har bir mamlakat jahon hamjamiyatidan munosib o'rin egallashga intilar ekan, bu yo'lda uning milliy g'oyasi nimaga asoslanganligi ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, o'z davlat boshqaruv strategiyasini maqsadi nimaga qaratilgani ham muhim hisoblanadi. Shaxs ma'naviyatni shakllantirishning muhim bosqichi, zaruriy sharti insonning o'z-o'zini anglashidan boshlanadi. Zero, insonning o'z ma'naviyatini rivojlantirishga bo'lgan ehtiyoji cheksizdir. U insonning butun ongli faoliyati davomida shakllanadi, rivojlanadi. Bu esa, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirishda tarixiy xotira, ajdodlar tarixini bilishning, milliy va axloqiy qadriyat hamda an'analarning, muqaddas dinning o'rni juda katta ahamiyatga ega bo'lib, biron bir xalq o'z tarixini bilmay, asrlar osha yaratilgan merosga tayanmay va uni yanada yuksaltirmay turib, o'z kelajagini tasavvur eta olmaydi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ўзбекистон Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида /Расмий нашр/. - Тошкент: Адолат, 2017.
2. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси. - Тошкент: Ўзбекистон 2021. - Б. 464.
3. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2017. - Б. 592.
4. Мирзиёев Ш.М. Халқимизнинг розилиги бизнинг фаолиятимизга берилган энг олий баҳодир. 2-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2018. - Б. 508.
5. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2019. - Б. 400.
6. Мирзиёев Ш.М. Миллий тикланишдан - миллий юксалиш сари. 4-жилд. - Тошкент: Ўзбекистон, 2020. - Б. 456.
7. Қаримов И.А. Асарлар тўплами, 1-24 жилдлар. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996-2015.
8. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёев раислигида 19 январь куни маънавий-маърифий ишлар тизимини тубдан такомиллаштиришга бағишланган видеоселектор йиғилиши // <https://www.gazeta.uz/uz/2021/01/19/selector/>
9. Абу Наср Форобий. Фозил одамлар шаҳри. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2016.
10. Абу Райхан Беруни. Памятники минувших поколений. Избранные произведения. - Ташкент, 1957, т.1.
11. Одобр-ахлоқ китоби / Жаҳид адабиёти намоёндалари: М.Бехбудий ва бошқалар. - Тошкент: Янги аср авлоди, 2020.
12. <https://ru.wikipedia.org/wiki>
13. Саитқосимов А. И. Фуқаролик жамиятини барпо этишда ижтимоий соҳани инновацион ривожлантириш қонуниятлари. Фалсафа фанлари доктори (DSc) диссертацияси автореферати. Самарқанд, 2019.
14. Яхшиликлар Ж. Миллий гоя - тараққиёт стратегияси. - Тошкент: Фан, 2017.